



O'ZBEK VA RUS TILLARIDA NEOLOGIZMLAR: ULARNI KELIB CHIQUISHLARI

Ravshanbekova Kumushoy Rustambek qizi

Namangan davlat chet tillari instituti

Filologiya va tillarni o'qitish: rus tili va

adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va rus tillarida neologizmlarni paydo bo'lishi, ularni shakllanish usullari hamda zamonaviy lingvistikadagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, bu ikki til o'rtasida neologizmlarni o'rganish orqali tilshunoslikdagi yangi yo'nalishlar masalan, korpus lingvistikasi, sotsial lingvistika kabi sohalar ham yoritiladi. Neologizmlarni semantikasi, morfologiyasi va ularning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi ahamiyati tadqiq etiladi

Kalit so'zlar: Neologizmlar, o'zbek tili, rus tili, zamonaviy tilshunoslik, til innovatsiyasi, texnologiya, tilshunoslik, korpus lingvistikasi, sotsiolingvistika, semantika, morfologiya, qiyosiy tahlil.

Аннотация: В данной статье анализируется возникновение неологизмов в узбекском и русском языках, методы их образования и их место в современной лингвистике. Кроме того, изучение неологизмов между этими двумя языками также освещает новые направления в лингвистике, такие как корпусная лингвистика и социолингвистика. Изучаются семантика, морфология и их значение в социокультурном контексте неологизмов.

Ключевые слова: Неологизмы в узбекском языке, русский язык, современная лингвистика, корпусная лингвистика, социолингвистика, семантика, морфология, сравнительно-сопоставительный анализ.



Abstract: *This article analyzes the emergence of neologisms in the Uzbek and Russian languages, the methods of their formation, and their place in modern linguistics. In addition, by studying neologisms between these two languages, new areas in linguistics, such as corpus linguistics and sociolinguistics, are also highlighted. The semantics, morphology, and their significance in the sociocultural context of neologisms are studied.*

Keywords: *Neologisms in the Uzbek language, Russian language, modern linguistics, linguistics, corpus linguistics, sociolinguistics, semantics, morphology.*

Hozirgi texnologiya rivojlangan asrda tilning o'rnini juda ham yuqoridir, chunki u doimo harakatda bo'lib, yangi tushunchlarni ifodalash uchun o'z ichiga yangi so'zlarni qo'shib boradi. Bunday yangi so'zlar *lingvistikada* neologizmlar deya ataladi va ular *zamonaviy tilshunoslikda* alohida o'rganilayotgan sohalardan biridir. Neologizmlarning kelib chiqishi yunon so'ziga boradi, "neos"- yangi, "logos" – so'z, ya'ni yangi so'zlarining jamlanmasidir. Tilda turli ehtiyojlar natijasida yangi paydo bo'lgan so'z yoki so'z birikmasidir. Neologizmlar avvaliga g'ayrioddiy tuyuladi, lekin ko'p qo'llangani uchun "noodatiylik" xususiyatini yo'qotadi va faol so'zlar qatoriga o'tadi. Ayniqsa hozirgi texnika va texnologiya rivojlanayotgan kunda, internet madaniyati yangi so'zlarni shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu maqolada o'zbek va rus tilidagi neologizmlarni taqqoslab, ularni kelib chiqishlari, shakllanish usullari va tildagi o'rinlari tahlil qilinadi.

Til - "ijtimoiy belgilar tizimi" til birliklari jamiyat ehtiyojlariga qarab o'zgarib boradi, deya fikr ilgari surgan ilk tilshunos olim Ferdinand de Saussure.¹ Ushbu olimning qarashiga asoslanib, neologizmlar tasodifiy hodisa emas, balki tilning rivojlanish mahsuli, deya ayta olamiz. Leonard Bloomfield: "Jamiyatda yangi predmet yoki tushuncha paydo bo'lsa, u, albatta, o'z nomiga ega bo'ladi",² - deya til va jamiyatni uzviy bog'lagan. Bu esa neologizmlarning asosiy paydo bo'lish manbai jamiyat ehtiyoji ekanini ko'rsatadi. Zamonaviy lingvistikada neologizmlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan yangi bo'limlar yuzaga keldi.

XX-XXI asrda globallashtirish, raqamli texnologiyalar, va ommaviy axborot vositalarining jadal rivojlanishi har bir tilda neologizmlarni keskin ortishiga sabab



bo'lib kelmoqda. David Crystal zamonaviy ingliz tilini "neologizmlar ishlab chiqaruvchi global til"³ deya ta'kidlaydi. Olimlarning fikricha ayni zamonda til taraqqiyoti hech qachon bo'lmagan darajada tezlashgan.

Rus tilshunosi N.M.Shanskiy neologizmlarni "muayyan tarixiy davr uchun yangilik bo'lgan, ammo hali umumxalq tiliga to'liq sngib ketmagan leksik birliklar"⁴ deya tariflaydi. Ushbu ta'rifda vaqt omili asosiy mezon sifatida qaraladi. Shanskiyga ko'ra, neologizmlarning asosiy belgisi uning yangiligi emas, balki yangilik sifatida qaralishidir. Rus tili dinamik va o'zgaruvchan tillardan biridir. Bu tildagi neologizmlar axborot texnologiyalari va globalizatsiya asosida ko'p hollarda ingliz tilidan o'zlashtirilgan va ular aynan shu tilda, ya'ni ingliz tilida qo'llaniladi. Misol uchun "startup", "streaming", "blogger", "speaker", "onlayn-oflayn" kabi so'zlar rus tiliga kirib, bu tilda o'z o'rnini topgan. Rus tilida neologizmlar ko'p hollarda fonetik moslashtirish orqali mavjud bo'ladi, ammo ba'zi so'zlar rus tiliga o'zining morfologik o'zgarishlari bilan kiradi. Masalan, "internet do'koni" (online store), "onlayn xizmatlar" (online services) kabi atamalar ruscha ekvivalentlar asosida yaratilgan. Bu jarayon, rus tilida yangi so'zlarning yaratilishi va ularni til tizimiga integratsiya qilishning muhim usuli hisoblanadi. Bundan tashqari, rus tilida neologizmlar ijtimoiy va madaniy jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, ular xalqaro va milliy madaniyatlar orasidagi integratsiyani aks ettiradi. Masalan, "blogger" va "influencer" kabi so'zlar, ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo'lgan shaxslarni ifodalash uchun qo'llanilsa, "streaming" so'zi internet orqali video va audio materiallarni jonli efirda tarqatishni anglatadi. Bu kabi neologizmlar rus tilida zamonaviy madaniyat va texnologiyalarni aks ettiradi.

Mustaqilligimizdan keyingi davrda tilshunoslikligimizda neologizmlar muammosi dolzarb ilmiy masalaga aylandi. Axborot texnologiyalarni rivojlanishi, ijtimoiy-siyosiy tizim, bozor iqtisodiga o'tish kabi jarayonlar o'zbek tiliga yuzlab yangi birliklar kirib kelishiga sabab bo'ldi. O'zbek tilshunosi A.Hojiyev neologizmlarni "tilning icki imkoniyatlari va tashqi omillar ta'sirida vujudga keladigan leksik yangiliklar"⁵ deb ta'kidlaydi. U neologizmlarni normativlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratib, har bir yangi so'z adabiy til me'yoriga mos kelishi



zarurligini ta'kidlaydi. Chunki o'zbek tili o'zining boy tarixiy va madaniy merosi bilan ajralib turadi. Shuning uchun, yangi so'zlar yoki iboralar yaratish jarayonida milliy o'ziga xoslikni saqlash juda muhimdir. O'zbek tilidagi neologizmlar ko'p hollarda texnologik yutuqlar, axborot texnologiyalari, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda yuz berayotgan o'zgarishlarni ifodalash uchun yaratiladi. Bugungi kunda O'zbek tilida "onlayn", "vlog", "startap", "mobil ilova", "dasturchi" kabi so'zlar keng qo'llanilmoqda. Bu atamalar ko'pincha ingliz tilidan o'zlashtirilgan, biroq o'zbek tilida ularning fonetikasi va morfologiyasi ba'zan o'zgaradi. Masalan, "online" atamasi o'zbek tiliga moslashib "onlayn" shaklida ishlatiladi. Bunday o'zgarishlar tilning yangi ehtiyojlar va shartlarga moslashishini ko'rsatadi. Neologizmlarni ko'pligi tilning zamonaviy dunyo bilan bog'liqligini va jamiyat ehtiyojlarini qondirishdagi rolini aks ettiradi.

Neologizmlar tahlilining eng muhim jihatlaridan biri ularning semantik xususiyatlarini o'rganishdir. Neologizmlar, asosan, yangi tushunchalarni ifodalash uchun yaratiladi va ular tilning leksik tizimiga yangi ma'nolar qo'shadi. O'zbek va rus tillarida neologizmlar ko'pincha ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va yangi ma'nolarni yaratish maqsadida hosil bo'ladi. Masalan, "kripto-valyuta" atamasi nafaqat iqtisodiy, balki texnologik yangilikni ifodalash uchun yaratilgan. Bundan tashqari, morfologik jihatdan, ba'zi neologizmlar til tizimida yangi shakllar va tuzilmalar yaratish orqali shakllanadi. O'zbek tilida "vlog" atamasi o'zlashtirilgan bo'lsa, "vloger" (vlogger) so'zi yangi morfologik shaklda qo'llaniladi. Rus tilida ham shunga o'xshash morfologik o'zgarishlar yuz beradi. Bunda neologizmlar nafaqat yangi so'zlarni kiritadi, balki tilni yangilash va boyitish imkoniyatini ham beradi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, rus tilida neologizmlar tez va erkin shakllansa, o'zbek tilida bu jarayon ehtiyotkorlik va normativ yondashuv asosida amalga oshiriladi. V.G.Gak neologizmlarni milliy-madaniy omillar bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlab, har bir til yangi yangi birliklarni o'z madaniy mezonlariga moslashtirishini qayd etadi.



Xulosa qilib aytganda, neologizmlar til taraqqiyotining ajralmas va qonuniy mahsuli hisoblanadi. Ular jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy, madaniy va texnologik o'zgarishlarning lingvistik aksidir. Tilshunos olimlarning fikricha, neologizmlar faqat yangi so'z majmui emas, balki til tizimini rivojini belgilovchi omil sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi. Ferdinand de Saussure tilning tarixiy va ijtimoiy harakatchanligini isbotlab bergan bo'lsa, Crystal kabi olimlar neologizmlarning jamiyat ehtiyojlari va global jarayonlar bilan bog'liqligini bevosita ilmiy asoslab berdilar. O'zbek olimlarining ta'kidlashicha, har bir yangi so'z adabiy til me'yorlariga mos kelishi va milliy til tizimiga zarar etkazmasligini bildiradi. Bu yondashuv o'zbek tilining barqarorligiga xizmat qiladi. Rus tilida flektiv tizim yangi so'z yaratishda ikki xil semantik-morfologik mexanizmni yuzaga keltiradi. Rus tilidagi -изация, -ность, -щик modellarining funksional salmog'i o'zbek tilidagi mos yaratuvchi qo'shimchalarga nisbatan yuqori. O'zbek tilida neologizmlar ko'proq turg'un modellarga (-chi, -lik, -lash-, -sifatida) tayanadi, rus tilida esa kompleks affiks kombinatsiyalari keng qo'llanadi. Har ikki til kompozitsiyani faol qo'llasa-da, rus tili kompozitsiyadan tashqari murakkab qisqartmalar va prefiksali-birikuvi bilan neologiya jarayonini boyitadi. O'zbek va rus tillaridagi neologizmlarning morfologik modellarini qiyosiy-chog'ishtirma tadqiq etish, ushbu ikki tilning so'z yasash tizimi, ham umumiy til taraqqiyoti qonuniyatlari, ham tipologik farqlari nuqtayi nazaridan alohida ilmiy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. O'zbek va rus tillaridagi neologizmlar tilshunoslikda yangi yondashuvlarni yaratadi va tilni yangi kommunikativ ehtiyojlar bilan ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saussure, F. Course in General Linguistics. London: Fontana, 1983.
2. Bloomfield, L. Language. New York: Holt, 1933.
3. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge, 2003. Hojiyev, A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, 2002. Gak, V.G. Sravnitel'naya tipologiya. Moskva, 1989.
4. Shanskiy, N.M. Leksikologiya sovremennogo russkogo yazyka. Moskva, 1972.